O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

“Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisdiyotni rivojlantirish muammolari”

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 18-aprel

Ишонкулова Феруза Асатовна	Экономическое развитие в условиях инновационной экономики.	43
S.O‘.Husenov N.Boboev	Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda oliy ta’limning roli.	46
Primova Azima Azizovna Abdurasulova Munisa Abduvoxidovna	"Yashil" iqtisodiyot konseptsiyasi va rivojlantirish istiqbollari	52
Shodmonova Zubayda Ubaydullayevna	Yashil iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishi va ekologik xavfsizlikning uyg‘unligi	55
Джумаев Аскар Хайдарович	Ўзбекистонда яшил иқтисодиётни шакллантириш жараёнларида экологик сиёсатнинг устувор вазифалари.	60
A.I.Raxmonov	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati, zaruriyati va istiqbollari	66
A.A.Аблаизов	Ўзбекистонда аҳоли турмуш даражасини оширишда Экотуризмнинг ахамияти	69
Мансурова Музафарра Махсудовна	Социально-экономическое значение образования и образовательных услуг в развитии экономики узбекистана	72
Ablaizov Akbar Abduvafo o’g’li	**ishning ijyimoiy hayotdagi o’rni va iqtisodiy ahamyati**	77
Samiyev.M.A Aktamova Sabina Hasan qizi	O'zbekıstonda ekologık muhıtnı tabııy hamda molıyavıy jıhatdan muhofaza etısh	81
II SHO‘BA. YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA RAQAMLI XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
Шевченко Игорь Викторович Самойленко Павел Викторович	Возможности развития зелёной экономики для улучшения социально-экономического положения регионов. Вызовы и возможности.	85
Мырзалиев Бораш Смаилович Шарапов Айдар Халидинулы	Проблемы развития зеленой экономики в казахстане	89
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Аллаёр Баратович Шакаров Расулбек Исломович Пардаев-	Яшил иқтисодиёт шароитида халқаро экотуризмнинг замонавий концепцияси ва амалиёти	95
Xalikova L. N. Yuldashev SH. K. Ashurova Jasmina	Yashil iqtisodiyot asosida raqamli xizmat ko‘rsatish muammolari va yechimlari	100

позволяют специалистам быстрее адаптироваться к технологическим изменениям и активно участвовать в инновационных процессах.

Однако экономическое развитие не может строиться только на технологиях и производстве. Важно учитывать потребности общества, направляя инновации на решение актуальных социальных и экологических проблем Узбекистана. Устойчивое развитие возможно только при комплексном подходе, который сочетает экономический рост с заботой об окружающей среде и повышением качества жизни людей.

Таким образом, инновационная экономика — это не просто путь к технологическому прогрессу, но и основа для формирования устойчивого, конкурентоспособного и социально ориентированного общества. Именно она позволяет странам двигаться вперед, создавая передовые технологии и улучшая жизнь каждого человека

Список использованной литературы

1.В.Ф.Максимова [и др.] Экономическая теория:учебник для бакалавров /; под общей редакцией В. Ф. Максимовой. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. – 580 с.

2.Днепров, М. Ю. Экономическая теория : учебник для вузов / М. Ю. Днепров, О. В. Михайлюк, В. А. Николаев. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. – 216 с.

3.Е. Алпатов [и др.]. Экономическая теория : учебник и практикум для бакалавриата и специалиста / Под редакцией Г. Е. Алпатова. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 299 с.

4.Мухаммедов М.М., Камилова Н.А. Экономическая теория. Учебное пособие. –С.:Турон Нашр, 2020 г. 480 с.

5.Мухаммедов М.М., Камилова Н.А. Экономическая теория. Тексты лекций в 2-х частях. –С.:СамИЭС, 2019 г.

YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING ROLI

S.O'.Husenov – SamISI "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi
N.Boboev- SamISI "Marketing" kafedrasi dotsenti

Annotasiya: Mazkur maqolada mamalakatimizda "Yashil iqtisodiyot"ni shakl-lantirish va rivojlantirishda OTMlarining ahamiyati ular bajarayotgan muhim vazifalar, ya'ni yangi bilimlarni ishlab chiqish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, jamiyatga xizmatlar ko'rsatish va ijtimoiy tanqid nuqtai-nazaridan qaralib nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, oliy ta'lim, investitsiya, kadrlar tayyorlash, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy tanqid, axloqiy vazifa.

Hozirgi kunda “yashil iqtisodiyot” mamlakatlarni barqaror rivojlanishining asosi sifatida qaralmoqda. Shu boisdan ham halqaro hamjamiyatda “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va rivojlantirish uchun keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirilishi bejizga emas[15]. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, “yashil iqtisodiyot”, asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o‘sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta’minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyotga” o‘tish iqlim o‘zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo‘qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi[16].

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir davlat uchun alohida ahamiyat kasb etgan holda, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga uzviy bog‘liq holda ro‘y beradi. Shuning uchun avvalo, o‘tish jarayonida qulay muhit yaratishni taqozo etadi[17]. Mamlakatimizdagi vaziyat, ya’ni iqlimning o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashda o‘zaro bog‘liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligi “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni qiyinlashtirmoqda. Bundan tashqari, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda[18]. Mazkur muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarorda quyidagi muhim vazifa, xususan **“ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish”**[19] deb belgilangan. Bu nimani anglatadi? “Yashil

---

[15] https://uz.wikipedia.org/wiki/Birlashgan Millatlar Tashkilotining_Atrof-muhit_dasturi

[16] N.A.Xakimova "Yashil iqtisodiyot"ga o`tish yo`nalishlari va ustuvorlik xususiyatlari. Iqtiso-diyotda innovatsiyalar jurnali. 2018 yil № 2. 54-60 betlar. http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2019-1-8

[17] Sh.P.Shumkarova, Z.Ya.Nurboyeva “Hozirgi kunda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining zarurligi”. "Экономика и социум" №6(121)-2 2024 www.iupr.ru, 696-699 betlar

[18] Sh.Mirziyoyev “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarori, 2019-yil 4-oktabr

[19] Sh.Mirziyoyev “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarori, 2019-yil 4-oktabr

iqtisodiyot"ga o'tishni tezlashtirish uchun ta'lim, xususan oliy ta'limga investitsiya kiritish va shu soha bo'yicha sifatli, malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash lozim ekanligini anglatadi. Demak, oliy ta'lim tizimi va uning tarkibidagi oliy ta'lim muassasalar "yashil iqtisodiyot"ni shakllanishining muhim omili ekan. Haqiqatdan ham oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarni "yashil iqtisodiyot" bo'yicha bilim, ko'nikma, malakasini rivojlantirmasdan qanday "yashil iqtisodiyot" tizimini shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin?. Xush oliy ta'lim tizimi bu borada qanday strategik vazifalarni amalga oshirish kerak?. Ma'lumki, hozirgi kunda halqaro hamjamiyat oliy ta'lim muassasalarining umumiy to'rtta asosiy vazifasini e'tirof etmoqda[20, 21]. Quyida ushbu vazifalarni "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish nuqtaiy-nazaridan ko'rib chiqamiz.

Birinchi vazifasi, yangi bilimlarni ishlab chiqish, ya'ni tadqiqot vazifasi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishni tezlashtirish va uni rivojlantirish uchun mazkur vazifa juda dolzarbdir. Bunda "Yashil iqtisodiyot" bilan bog'lik bilimlar urganiladi va yangi bilimlar shaklantiriladi. Mazkur vazifani muhim tomoni shundaki, OTMlar ushbu iqtisodiyot bo'yicha yangi bilimlarni yaratish kerak. Buning uchun OTMlar chuqur ilmiy izlanish olib borishlari lozim. Afsuski bu borada bizning OTMlar faoliyati hozircha qoniqarli darajada emas. Juda ko'plab ilmiy maqola yoki ma'lumotlar bor, ularning aksariyati shunchaki ilmiy nazariya bilan cheklanib qolgan yoki bo'lmasam horijiy olimlarning izlanishlar bilan ifodalangan. Shu mavzu bilan bogliq ko'plab mahalliy tadqiqotchilar ishlarining emperik asosi juda zaif. "Yashil iqtisodiyot" bo'yicha yangi bilimlar chuqur izlanishni[22] taqozo etadi. Masalan, "Yashil iqtisodiyot"ning muhim komponenti[23] qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanishdan iborat. Biroq, aholiga energiya[24] buyicha o'rnatilayotgan me'yorlar (cheklovlar) nima asosda o'rnatilganligi buyicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar yoki emperik dalillar haligacha yuq yoki isbotlanmagan. Ma'lumotlar bo'lsada (umumiy, nazariy, yoki aynan biror horijiy mamlakatdagi amalga oshirilgan ishlar) bizni milliy tizimda o'z tasdig'ini topmagan gepotezalar holos. Shu sababli OTMlar "yashil iqtisodiyot" bo'yicha ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib birishi, uning natijalariga asoslangan holda o'quv dasturlari, o'quv qullanmalari, maqolalar yozishlari yoki dars jarayonlariga bevosita foydalanishlari kerak bo'ladi.

---

[20] J.Cemmell, "Is Higher Education a Public Good?," *First Glob. Forum Int. Qual. Assur. Accredit. Recognit. Qual. High. Educ. United Nations Educ. Sci. Cult. Organ.*, pp. 17–18, 2002.

[21] Sunder M.V. "Constructs of quality in Higher Education service," Int. J. Product. Perform. Manag., vol. 65, no. 8, pp. 1091–1111, 2016, [Online]/ http://dx.doi.org/10.1108/IJPPM-05-2015-0079%0.

[22] https://lex.uz/docs/-6303230

[23] https://uza.uz/uz/posts/yashil-iqtisodiyot-dunyo-oldidagi-talab_659705

[24] https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/09/200-kvt/

Ikkinchi vazifasi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash ya'ni tayyorlash vazifasi. Bu vazifani bajarishda OTMlari lokamativ bo'lishlari kerak. Ushbu ikkinchi vazifa birinchi vazifani mantiqiy davomi bo'ladi. Birinchi vazifani bajargand, bilimlar yaratiladi, ko'nikma va malakalarni ishlab chiqiladi. Endi esa jamgarilgan bilim va malakalar asosida kadrlarni tayyorlashi, soha va tarmoqlardagi mutahassislar hamda ishchilarni malakasini oshirishi kerak bo'ladi. "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish sharoitida kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish juda ma'suliyatli jarayon hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ning o'ziga hos hususiyatlari, boshqa iqtisodiyotdan farq qiladigan tomonlari mavjud. Bu iqtisodiyotning tub mohiyati tabiyatni asrash, u inom etgan resusrslarni tejashdan iborat. Har qanday iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda tabiat, atrof muhitni hisobga olib ish yuritish zarur hisoblanadi. Bunda, OTMlari birinchidan, "Yashil iqtisodiyot" buyicha avvalo o'z professor-o'qituvchilarini bilim va malakasini oshirishi lozim. Ikkinchidan, o'tiladigan fanlar dasturida[25] "yashil iqtisodiyot"ning mazmum mohiyatini ifodalaydigan mavzularni kiritish va ular asosida samarali darslarni tashkil etishlari lozim. Qolaversa oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "yashil iqtisodiyot" bo'yicha eng oldinda bo'lgan davlatlardagi oliygohlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi va ulardagi o'quv dasturlarni o'rganishi hamda kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Hozirgi kunda "Yashil iqtisodiyot" shakllantirish uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash hamda korhona tashkilotlar uchun ilmiy taklif va tavsiyalar, ilmiy ishlanma hamda startaplarni tayyorlash, amaliyotga tadbiq etishda OTMlari tashabbuslari etarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish bo'yicha halqaro maydonda juda katta miqdorda grantlar e'lon qilinmoqda. Mahalliy OTMrni bunga ishtiroki deyarli sezilgani yo'q. Masalan, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish uchun hukumat rahbari boshchiligida juda katta amaliy ishlar qilinib[26], katta miqdorda investisiya jalb qilindi. Masalan, Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha doirasida 2023–2025-yillarda Yevropa Ittifoqining 6,1 mln yevro[27] grant mablag'lari jalb qilingan.

O'chinchi vazifasi, jamiyatga xizmatlar ko'rsatish. OTM davlat va jamiyat uchun nafaqat kadr tayyorlash, balki bir qancha qushimcha xizmatlarni ham ko'rsatadi. Kadrlar tayyorlash bilan birga vaqtda turli boshqa institutlar bilan (Institutsional nazariya va nuqtai-nazar, oila, jamiyat, mahalla, davlat, xuquq va boshqa institutlar) bilan hamkorlikda ishlaydi va ularga xizmat ham qiladi. Qolaversa, u iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari bo'yicha bilimlarni

[25] https://lex.uz/docs/-6303230
[26] https://www.imv.uz/media/prior/Yashil.pdf
[27] https://www.imv.uz/media/prior/Yashil.pdf

jamg'aradi, saqlaydi va tarqatadi, ularni kelajak avlodlarga (asl holatida) etkazadi[28], millatlar, davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni uygunlashtiradi, millatni dunyoda tanitadidan eng zur vosita vazifasini ham bajaradi (masalan, dunyodagi mashhur Oxford, Garvard oliygohlarida o'qiydigan talabalar Angliya, AQSH davlatlari qudratini his qilib turadi). Bundan tashqari oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumotlar beradi[29], milliy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanishga ham xizmat qiladi[30]. OTMrida juda katta ilmiy, madaniy meros (tabiat boyliklari bilimlar) saqlanadi. Bu davlatning ichki va tashqi havfsizligi uchun juda muhimdir. OTM ham iqtisodiyotni yirik sohasi sifatida xizmatlar tarkibiga kiritilgan. Jamiyatdagi ziyolilar ushbu sohada band va bu soha uziga xos qiymat yaratadi. Qolaversa, maskur soha jamiyatdagi ijtimoy-iqtosodiy muammolarni o'rganib, davlat boshqaruvi uchun "signal"[31] berish vazifasini ham bajarishi mumkin. Bunda OTMlar davlat va aholi o'rtasida "agent"[32] sifatida qaraladi. Demak "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda yuqorida bayon qilingan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan davlat OTMlar oldida "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish uchun keng ko'lamda targ'ibotni amalga oshirishi lozim. Bu iqtisodiy modelni jamoatchilikka etkazishda ommaviy axborot vositalari, oila, mahalla, maktab, maktabgacha ta'lim muassasalarida (hodimlari, ishchilari uchun) davra suhbatlari, turli konferenseyalar tashkil etishi va kerakli to'g'ri axborot bilan ta'minlashi kerak.

To'rtinchi vazifasi ijtimoiy tanqidni o'z ichiga olgan axloqiy vazifadir. Ijtimoiy tanqid oliy ta'limning demokratlashtirish rolining bir qismi sifatida shakllanadi, bu akademik nutq va o'rganish usulida qo'llaniladigan tahlilning o'zini-o'zi tanqid qilish usulidan kelib chiqadi. Jamiyatda oliy ma'lumotlilarni ortib borishi turli-hil qarashlar, qarama-qarshi fikr mulohazalar, ijtimoiy tanqidlar

---

[28] P. Pegkas and C. Tsamadias, "Does higher education affect economic growth? The case of Greece," *Int. Econ. J.*, vol. 28, no. 3, pp. 425–444, 2014.

[29] http://idum.uz/archives/12081

[30] R. Crocker, "Human Capital Development and Education," *Can. Policy Res. Networks Inc.*, pp. 1–46, 2006, [Online]. Available: papers3://publication/uuid/1FAD441C-1535-4482-93EC-AD06C151B0E8.

[31] https://www.sciencedirect.com/topics/economics-econometrics-and-finance/signaling-theory#:~:text=Signaling%20Theory%20focuses%20on%20situations,et%20al.%2C%202011).

[32] Agentlik nazariyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu erda davlat va OTM o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tushuniladi. Agentlik nazariyasi assimmetrik axbarot[32] asosida shakllangan ilmiy nazariyadir. Ya'ni bizning misolda davlatning OTM oldidagi vazifalari va o'z navbatida OTMlarning davlat oldidagi majburiyati tushuniladi. Ya'ni davlat iqtisodiy o'sishni ta'minlashda va jamiyatning taraqqiy etib ravnaq topishida unda etuk bilim va salohiyatga ega bulgan mutaxassislarni etishtirish orqali o'zining uzoq muddatli strategik rivojlanish vektorini belgilaydi. Har ikkala tomonning-agentlarning, ya'ni davlat va OTMlar o'rtasidagi munosabatda assimmetrik axborotlarning mavjudligi davlatning iqtisodiy rivojlanish va jamiyat va millatning farovonligini ta'minlashda davlat o'z oldida turgan vazifalarni bajara olmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, agarda OTMlari deylik, etuk iqtisodchi, injener, tibbiyot xodimlari kabi mutaxassislarni qog'ozda etuk salohiyatga ega sifatli kadr deb chiqarsa-yu, lekin aslida, ushbu inson kapitali mehnat bozoirda raqobatbardosh bo'lmasa, undan kutilgan salohiyatni nomoyon etmasa, OTMlar agentlik nazariyasi nuqtai nazaridan davlat va jamiyat oldidagi assimmetrik axborot uchun javobgar buladi. Jamiyat va davlat oldida OTMlarni ma'suliyati juda yuqori. Afsuski bu ma'suliyatli vazifani OTMlari etarlicha bajarayapti deyishimiz qiyin.

bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Oliy ma’lumotlilar qatlami har qanday voqea hodisaga tanqidiy yoki ishonchsizlik ko‘zi bilan qaraydigan kishilar bo’lishadi. Aynan shunday ko‘nikma va qarashni OTM kishilarga rivojlantirishi shart va zarur. Demak, OTM akademik daraja berish orqali oliy ma’lumotlilar qatlamini shakllantirib boradi. Bu esa ishtimoiy tanqidni yanada ko‘payishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy tanqid odatda yomon emas, balki jamoat manfaati sifatida qaraladi. Xullas, ijtimoiy tanqid jamiyat uchun foydali, shuning uchun ham oliy ma’lumotlilar ko‘p bo‘lgan jamiyatlar taraqqiyotining yuqori bosqichidaga ko‘tarilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Buni quyidagi misol bilan yanada oddiyroq tushunsa b‘ladi. Masalan, qonun chiqaruvchi parlament tomonidan ishlab chiqilgan qonun, farmon, qarorlarni halqimiz o‘rtasida muhokamaga quyilishini aytish mumkin. Bundan tashqari ishtimoiy hayotda bo‘layotgan voqea hodisalarga ham bunday qatlamni reaksiyasi, qarashi, bildirgan fikr-mulohazalari ancha o‘rinli, asosli bo‘lganligi tadqiqotlarga aniqlangan[33].

“Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishda OTMning ushbu vazifasi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, oliy m’lumotli bitiruvchilar ko‘proq atrof-muhitga e’tiborli, sog‘lomroq odatlarga ega va fuqarolik ishtiroki darajasi yuqori bo‘lar ekan[34]. Shuning uchun OTMlari talaba yoshlarni yashil iqtisodiyot bo‘yicha kerakli barcha nazariy, amaliy bilim va ko‘nikmalar bilan qurolantirishi lozim. Fikrimizcha, mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ning shakllanishi bilan bog’liq kamchiliklarni aniqlash uni bartaraf etishdagi muammolarni asl sababi ham OTMlari bilan bog’liq. OTM “Yashil iqtisodiyot” bo‘yicha etarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borishmas ekan bu iqtisodiyotni rivojlantirishimiz qiyin buladi. OTMlarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilari, rahbariyat hodimlari, oliy m’lumotli bitiruvchilarni tabiyatga etadigan har qanday zarar, salbiy ta’sirlardan himoyalanish uchun ulardagi tabiatni asrash immunitetini kuchaytirishi kerak.

Fikrimizcha OTMlarining uzi “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishda jamiyat a’zolari oldida na’muna bo’lishlari kerak. Masalan, energiya tezamkorligi masalasida. Aksariyat hollarda dars bo’ladigan honalarda mashg’ulotlar bulsa-bulmasa yoritkichlar yoniq turadi yoki bo’lmasa yoriqlik yahshi vaqtlarda ham (kun yoriq bulgan hollar) chiroqlarni yoqib qo‘yishadi. Bundanda achinarlisi OTM o‘qituvchilari ham talabalar ham qog’ozdan foydalanishda deyarli tejamkorlikka rioya qilishmaydi. O‘quv jarayoni, darslar ham deyarli onlayn shaklda bulsada, hali-hanuz qogoz bilan bog’liq ishlar amalga oshirilmoqda.

---

[33] Dulaimi, “Education, Educational Services and their Quality,” *J. Mark. Manag.*, vol. 4, no. 1, pp. 58–66, 2016, doi: 10.15640/jmm.v3n2a6.

[34] Dulaimi, “Education, Educational Services and their Quality,” *J. Mark. Manag.*, vol. 4, no. 1, pp. 58–66, 2016, doi: 10.15640/jmm.v3n2a6.